



Nodirjon Xolmirzayev Nizomjonovich,
Kokand branch of Tashkent State Technical University
e-mail: n.xolmirzayev@tdtukokand.uz

SHAHAR MADANIYATI VA UNING MA'NAVIY BARKAMOL SHAXSNI TARBIYALASHDAGI O'RNI

Annotatsiya. *Maqolada shaxsning ma'naviy rivojlanishi jarayonida shahar madaniyatining o'rni, tarkibiy qismlarining ahamiyati, bu jarayonda yuz beradigan asosiy omillar, ular keltirib chiqaradigan natijalar va bu borada amalga oshirishilishi lozim bo'lgan vazifalar xususida so'z yuritiladi.*

Аннотация. *В статье говорится о роли городской культуры в процессе духовного развития человека, значение ее компонентов, основные факторы, которые имеют место в этом процессе, результаты, которые они производят, а также задач, необходимых для их реализации.*

Annotation. *The article discusses the role of urban culture in the process of human spiritual development, the importance of its components, the main factors that take place in this process, the results they produce, as well as the tasks necessary for their implementation.*

Tayanch so'zlar: *ma'nan barkamol shaxs, shahar madaniyati, shahar madaniyatining rasmiy elementlari, shahar madaniyatining rivojlanish vositalari, ijtimoiy kompetensiya.*

Ключевые слова: *всесторонне развитая личность, городская культура, формальные элементы городской культуры, средства развития городской культуры, социальная компетентность.*

Keywords: *comprehensively developed personality, urban culture, formal elements of urban culture, means of developing urban culture, social competence.*

Kirish. Yangilanish davrini boshdan kechirayotgan O'zbekistonda xalqimizning turmush darajasi oshirib borishi, mamlakatimiz dunyo davlatlari orasida munosib o'rin egallashi hamda o'zining zamonaviy imijiga ega bo'lishi juda ham muhimdir. Buning uchun Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi ta'minlashimiz, milliy g'oyamizning asoslarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Ana shu omillarga erishish uchun xalqning turmush tarzini, ong va shuurini o'zgartirish, bir so'z bilan aytganda milliy yuksalishishiga erishish zarur bo'ladi.

Bu borada aholining qishloqlardan shaharlarga ko'chishi, ya'ni urbanizatsiya jarayoni ham katta rol o'ynaydi. Shunday bo'lsa-da, urbanizatsiya qator muammolarni keltirib chiqaradiki, ularni bartaraf etmay turib milliy yuksalish yo'lida qator to'siqlarga duch kelishimiz mumkin. Mazkur masalalarga yechimlardan biri – shahar madaniyatini rivojlantirish.

Shahar madaniyati odamlarga o'z qadriyatlar tizimini aniqlash, yangi xulq-atvor uslublarini sinab ko'rish va ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish imkonini beradigan turli ijtimoiy faol ta'lim muhiti yaratish sifatida talqin etiladi. Ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishda shahar madaniyatining ishtiroki uning turli tajribalarni to'plash, tizimlashtirish va tarjima qilish vositasi sifatida harakat qilishi bilan izohlanadi.

Maqsad va uni asoslash. Urbanizatsiya jarayonlarida shahar madaniyatini rivoltantirish bilan bog'liq muammolar, ularni bartaraf etish usullari, shuningdek, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash hamda bu boradagi taklif va tavsiyalarni yoritish muhim ahamiyatga ega ekanligini tahlil qilish hamda mavjud muammolarga yechimlar qidirish zamonamizning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Shu bilan birga, yurtimizning kelajagi bo'lgan yosh avlodning ma'naviy olamini boy, har sohada barkamol qilib tarbiyalash uchun butun insoniyat necha ming yillar davomida yaratgan moddiy va ma'naviy madaniyat xazinalaridan bahramand etish, ularda barcha xalqlarga hurmat, milliy iftixor, vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini uyg'otish va shakllantirish muhim maqsadlardan sanaladi.

Bu borada fikr yuritganda qator olimlarning ilmiy tadqiqotlariga nazar tashlash foydadan xoli bo'lmaydi. Jumladan, mazkur muammo doirasida XIX–XX asrlarda yashagan chet el olimlari E.Berdjess, F.Znaneskiy, L. Virt, R.Park va U.Tomaslar aholining migratsiya, ijtimoiy moslashuv, shaxsning shahar muhitida o'zini tutishi, etnik guruhlarining hayoti va shaharlashish jarayonlarini o'rganishgan. Ularning davomchilari V.Fayri va A.Xouli o'z diqqatlarini shaharlashish sharoitida madaniyat, qadriyatlar va sotsiomadaniy institutlar, ma'naviy barkamol shaxs

Urbanizatsiya jarayonlarida shahar madaniyatini rivoltantirish bilan bog'liq muammolar, ularni bartaraf etish usullari, shuningdek, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash hamda bu boradagi taklif va tavsiyalarni yoritish muhim ahamiyatga ega ekanligini tahlil qilish hamda mavjud muammolarga yechimlar qidirish zamonamizning dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

***Insoniyat XXI
asrga katta
hayotiy tajriba,
bir olam bilim va
yuksak darajada
rivojlangan fan
va texnika bilan
kirib keldi. Dunyo
xalqlari madaniy
jihatdan o‘zaro
yaqinlashdi,
madaniyatning
turli sohalarida
misli ko‘rilmagan
yutuqlar qo‘lga
kiritildi.***

masalalariga e’tibor qaratishgan. Yuqoridagi tadqiqotlar va hozirgi davrada namoyon bo‘layotgan ijtimoiy hodislar mazkur masalani tadqiq etishning dolzarbligini ochib bergan.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Insoniyat XXI asrga katta hayotiy tajriba, bir olam bilim va yuksak darajada rivojlangan fan va texnika bilan kirib keldi. Dunyo xalqlari madaniy jihatdan o‘zaro yaqinlashdi, madaniyatning turli sohalarida misli ko‘rilmagan yutuqlar qo‘lga kiritildi. Ammo shu bilan birga, bugungi dunyo umumjahon miqyosidagi global muammolarga, lokal, ya’ni mintaqaviy yoki sohaviy mojarolarga, bir so‘z bilan aytganda, murakkab ziddiyatlarga ham duch kelmoqda¹. Shu bilan birga, jahonda va mamlakatimizda rivojlanish jarayoni davom etmoqda, shaharlar taraqqiyotga erishmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yuqorida ta’kidlanganidek, bir qator muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Dunyo olimlari va qator fan sohalar vakillarining fikriga ko‘ra, urbanistik madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratish yuzaga kelgan hamda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni bartaraf etish, shuningdek, oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida, shuningdek, yangi taraqqiyot davrida mamlakatimizda, qator sohalarida islohotlar amalga oshirildi. Vatan ravnaqi va xalq farovonligi yo‘lida ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirildi. Mamlakatimizda urbanizatsion taraqqiyotga erishishini davlatning strategik vazifasiga aylantirish borasida ko‘plab islohotlar olib borilishi davom etmoqda. Bu borada shahar madaniyatining rivojlanishi va aholi o‘rtasida tarqalishi muhim ahamiyat kasb etadi. Alohida qayd etish joizki, madaniyatga ijtimoiy-maishiy asbob-uskunalar, jamiyatda qabul qilingan xushmuomalalik imo-ishoralari va salomlashuv, yurish-turish tarzi, muomala etiketi, gigiyena odatlari va hokazolar ham kiradi. Aksariyat madaniy tushunchalar va qarashlar avloddan-avlodga o‘tib boraveradi². Shulardan biri madaniyat va uning tarkibiy qismi bo‘lgan shahar madaniyati tushunchasidir. “Madaniyat” tushunchasi turli tillarda turli so‘zlar, jumladan, ingliz tilida “culture”, rus tilida “культура” so‘zlari bilan ataladi. O‘zbek tilidagi “madaniyat” so‘zi arab tilidagi “madina”, ya’ni shahar so‘zidan kirib kelgan bo‘lib, “shaharga xos”, “shaharga oid” degan lug‘aviy ma’noni ifodalaydi. Madaniyatga ko‘plab ta’riflar berilgan bo‘lib, amerikalik madaniyatshunos olimlar – A. Kreber va K. Klakxonning 1952-yildagi ma’lumotlariga ko‘ra, madaniyat tushunchasiga berilgan ta’rif 164 ta bo‘lgan, so‘ngi adabiyotlarda esa

¹ Абдурахмонов М., Рахмонов Н. Маданиятшунослик бакалавриат учун дарслик. Тошкент. – 2008 3-бет

² Кравченко А.И. Культурология. – Учебник. “Проспект”, М.:2005, стр.15.

madaniyatning ta'rifi 500 dan ortiq³ ekani ta'kidlanadi. Shahar madaniyati – yirik va qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan sanoat va ma'muriy markazdir. Hamma shahar aholisi uchun yagona madaniyat mavjud emas. Shuni ta'kidlash kerakki, shahar madaniyatining butun xilma-xilligi inson hayotining ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalariga xizmat qiladigan turli sohalar va faoliyat turlarining kombinatsiyasini o'z ichiga oladi, buning natijasida odamlarning normal faoliyat ko'rsatishi uchun sharoit yaratadi. Har qanday shaharda fuqarolar uchun madaniy va rivojlanish funksiyalarini bajaradigan tashkilot va muassasalarni topish mumkin⁴. Ular shahar madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida alohida o'ringa ega.

Shahar jamoasining tashkiliy tuzilmasi va shaharning fazoviy muhitining o'zi ma'lum bir guruh xususiyatlariga, ijtimoiy muloqot shakllariga, nutq xususiyatlariga, turli xil usullar va bilim tizimlariga egaligiga, o'zlarining “shahar madaniyati”ni yaratadigan fuqarolar tomonidan dunyoni talqin qilish uchun muhim natijalarga olib kelishi mumkin.

Shahar madaniyati quyidagi elementlarni birlashtiradi:

a) o'z-o'zidan paydo bo'ladigan kundalik madaniyat, chunki u kundalik hayotning barcha belgilarini o'z ichiga oladi, shaxsning subyekt-fazoviy muhiti muhitini, muloqot shakllarini, kundalik faoliyat odatlari va ko'nikmalarini, kundalik hayotini, mehnati va dam olishini tashkil etish usullarini o'z ichiga oladi;

b) ijtimoiy buyurtmani, ommaviy madaniyatni bajaradigan, subyekt-madaniy faoliyat mahsulotlari (tovar va xizmatlar, binolar va inshootlar, turmush tarzi, didlar, odatlar, g'oyalar va ideallar, illyuziya va orzular)ni katta “aylanishlar”da ko'paytiruvchi mutaxassislar tomonidan maqsadli ravishda yaratilgan madaniyat.

Shahar madaniyati yirik ijtimoiy guruhlarining alohida turmush tarzi bo'lib, u ishlab chiqarish usuli, u bilan bog'liq faoliyat usullari, jamiyatdagi munosabatlarni tashkil etish, mentalitet xususiyatlari, bilim darajasi, axloqi, san'ati, dini, huquq va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy-madaniy nuqtayi nazardan, shahar milliy madaniyatni saqlab qolish, uni hayotning haqiqiy shakllariga aylantirish va keyingi avlodlarga yetkazish vazifasini bajaradi. Lekin shu bilan birga, shahar madaniyatni ijodiy rivojlantirish markazi vazifasini ham o'taydi. Bu orqali ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashda ishtirok etadi.

Shahar jamoasining tashkiliy tuzilmasi va shaharning fazoviy muhitining o'zi ma'lum bir guruh xususiyatlariga, ijtimoiy muloqot shakllariga, nutq xususiyatlariga, turli xil usullar va bilim tizimlariga egaligiga, o'zlarining “shahar madaniyati”ni yaratadigan fuqarolar tomonidan dunyoni talqin qilish uchun muhim natijalarga olib kelishi mumkin.

³ А.И.Кравченко. Культурология. Учебник. – Москва, 2005, стр.11

⁴ Кравченко А.И. Культурология: учеб. пособие для вузов. 8-е изд. – Москва: Академический проект; Трикста, 2008.

Shahar madaniyatining rivojlanish vositachilari – afsonalar, ramzlar, ijtimoiy hayotni va uning natijalarini targʻib qilish boʻyicha faoliyat jarayoni yaratuvchilar, foydalanuvchilar, muxlislar tomonidan “zaryadlangan” energiyaga ega. Mazkur energiya natijasida shaxsni rivojlantirishning fenomenologik koʻrinishi paydo boʻladi.

Shahar madaniyati fuqarolarning gʻoyalari, his-tuygʻulari, kayfiyatlarini tartibga soladi, u maʼnaviy barkamol shaxsni shakllantirishda “ishtirok etishi”, tajribani toʻplash, tizimlashtirish va uzatish vositasi, uzoq muddatli va chuqur jamoaviy kayfiyatlar tili boʻlib, uning yordamida avlodlarning his-tuygʻulari, ularning avlodlari tajribasi rivojlantiriladi va foydalaniladi.

Shahar madaniyatining rivojlanish vositachilari – afsonalar, ramzlar, ijtimoiy hayotni va uning natijalarini targʻib qilish boʻyicha faoliyat jarayoni yaratuvchilar, foydalanuvchilar, muxlislar tomonidan “zaryadlangan” energiyaga ega. Mazkur energiya natijasida shaxsni rivojlantirishning fenomenologik koʻrinishi paydo boʻladi.

Shahar madaniyati oʻsishi oqibatida shaxsni va uning hayot yoʻlini rivojlantirish uchun zarur boʻladigan xatti-harakatlar, faoliyat, ongning yangi shakllarini yaratishga turtki beradigan insonning muhim kuchlari tugʻiladi”.

Shahar madaniyatining shaxs bilan oʻzaro munosabati jarayonini turli milliy-madaniy muhitlarda, shu bilan birga, oʻzining asosiy jihatlari bilan oʻzgarmas boʻlgan xususiyatlarini maʼnaviy barkamol shaxsni shakllantirishga qoʻshgan hissa nuqtayi nazaridan ham oʻrganish kerak. Masalan, shaharning madaniy qiyofasi taʼlimni rivojlantirish muhitining muhim elementi sifatida qaralishi mumkin.

Shahar madaniyatining rasmiy elementlariga barakamol shaxsni shakllantirish kontekstida nazar tashlasak, quyidagilarga guvoh boʻlamiz:

- kenglik shahar madaniyatiga kiruvchi subyektlar, obyektlar, jarayonlar va hodisalarning tarkibiy jihatdan mazmunli xarakteristikasi sifatida;

- intensivlik, yaʼni shahar atrof-muhitining sharoitlar, taʼsirlar va ularning namoyon boʻlish konsentratsiyasi imkoniyatlari bilan toʻyinganlik darajasining miqdoriy va mazmunli xususiyatlari;

- shahar madaniyatining modalligi yoki sifat va mazmun xususiyatlari (idrok etilgan va tushunilgan tarixiy faktlar, shahar muhitining fazoviy-rejaviy yechimlari, meʼmoriy ansambllar, ularning meʼmoriy uslubi, subyekt ongining xotira, tafakkur, hissiyotlar, iroda va boshqa tarkibiy elementlarining aktuallashuviga qarab idrok etish xususiyatlari);

- subyektning oʻziga xos “shahar madaniyati varianti”ga kiritilganligining koʻrsatkichi sifatida tan olinishi;

- shaxs maʼlum bir shaharda tugʻilib oʻsgan yoki maʼlum bir yoshda u yerda yashagan hamda uning tarixiy va diqqatga sazovor joylari bilan tanishligi;

– shahar madaniyatining xarakterli elementlarining vaqt bo'yicha barqarorligi va ularning mavjud bo'lgan vaqtini subyektning umr ko'rish davomiyligi bilan taqqoslash;

– shahar madaniyatining diaxronik tavsifi va boshqalar.

Shu o'rinda aytish mumkinki, yoshlarimizning ma'naviy qiyofasi, ya'ni ma'nani kamol topishlari milliy xarakterning ajralmas qismi bo'lib, u milliy taraqqiyotimizni ta'minlovchi mafkuraviy omildir. Fikrimizcha, ma'naviy qiyofani shakllantirish sof ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida milliy taraqqiyot maqsadi bilan uyg'unlikda talqin etilishi va unga turtki bo'luvchi barcha psixologik jabhalarni ilmiy jihatdan tadqiq etish zarur.

Bizningcha, shahar madaniyati tomonidan tashkil etilgan tajriba o'ziga xosdir. Bu, asosan, hissiy tajriba bo'lib, u insondan odamga, avloddan-avlodga "his-tuyg'ularni o'tkazish"ga qodir bo'lgan va shu bilan "shahar miqyosidagi voqealarning ahamiyatini kengaytirib, ularga universallik bag'ishlaydigan" muhim shakllar beradi. Fikrimizcha, shahar madaniyati odamlarning g'oyalari, his-tuyg'ulari, kayfiyatlarini tartibga soladi, bilimlar bilan yaqin aloqada bo'lib, ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, bizning zamonamizda shahar madaniyati zamonaviy ong tomonidan qurilgan innovatsion ko'p qirrali madaniyat modellari uchun sinov maydonidir. Shu bilan birga, har bir shahar "jamoaviy" birlikka aylantiriladi⁵.

Inson va shahar madaniyati boshqasini o'zgartirish sharti va vositasi sifatida harakat qiladi. Ularning o'zaro ta'sir qilish jarayoni shahar muhitiga, uning ideal shakllari (subyektning ongida taqdim etilgan tasvirlar va tushunchalar)ga, shuningdek, uning ongsizligining arxetipik mazmuniga bog'liq. Shahar madaniyati insonlar hayotida quyidagi vazifalarni bajaradi, jumaladan:

– fakt (subyektning atrof-muhit bilan birga yashashi u tomonidan o'zaro ta'sir nuqtayi nazaridan amalga oshirilmaydi);

– omil (shahar madaniyatining ongga ta'siri aqliy voqelikning eng yuqori shakli sifatida tan olinadi, hissiy, kognitiv va ma'naviy sohaga ta'sir qiluvchi har qanday parametr ajratiladi va tahlil qilinadi);

– faoliyat va xulq-atvorning holati (shaharning idrok obyekti sifatida aks ettiruvchi faol voqelik sifatida hamda obyektiv faoliyatning tashuvchisi va amalga oshiruvchisi sifatida namoyon bo'ladi);

– ma'lum turdagi ongni shakllantirish vositasi (ma'lum bir umuminsoniy qadriyatlarni bilvosita o'z ichiga olgan ma'noni yaratish

Bizningcha, shahar madaniyati tomonidan tashkil etilgan tajriba o'ziga xosdir. Bu, asosan, hissiy tajriba bo'lib, u insondan odamga, avloddan-avlodga "his-tuyg'ularni o'tkazish"ga qodir bo'lgan va shu bilan "shahar miqyosidagi voqealarning ahamiyatini kengaytirib, ularga universallik bag'ishlaydigan" muhim shakllar beradi.

⁵ Парк Р.Э. Город как социальная лаборатория // Социологическая теория: история, современность, перспективы. Альманах журнала «Социологическое обозрение». – Санкт-Петербург, 2008. – С. 29-43.

jarayoni shahar madaniyati hodisalari qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatdan shaxsiy qadriyatga aylantirish orqali subyekt tomonidan o'zlashtirish akti shaklida namoyon bo'ladi).

Yakuniy qism. Zamonaviy shahar madaniyati kontekstida ma'naviy barkamol shaxs fenomeni haqida fikr yuritar ekanmiz, biz zamonaviy madaniyatni, uning taqdirini tushunishga yaqinlashishga harakat qilamiz. Barkamollikning zamonaviy tushunchasi shaxsning ma'lum funksiyalarni bajarish qobiliyatiga ega bo'lishini ham, unga mustaqil va mas'uliyatli harakat qilish imkonini beradigan bir qator aqliy sifatlarning mavjudligini ham o'z ichiga oladi.

Ma'naviy barkamollikning muhim tarkibiy qismi – ijtimoiy kompetensiya, biz tomonidan, birgalikda faoliyat, hamkorlik, muloqot qilish usullariga ega bo'lish, shuningdek, shaxsning o'z faoliyati natijalari uchun yetakchilik va ijtimoiy javobgarlik sifatida namoyon bo'ladi. Ma'naviy barkamollik fenomeniga to'xtaladigan bo'lsak, biz jamiyat a'zolarining vakolatli xatti-harakatlarining asosiy elementlariga, turmush tarzi va harakatlariga undaydigan motivatsiya jarayoniga e'tibor qaratishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
2. Абдуллаев Т.У. Турмуш соҳасида миллий ва умуминсоний қадриятларнинг диалектикаси: фалс. фан. докт. ...дисс. – Тошкент: ТошДУ, 1992.
3. Абдураҳмонов М., Раҳмонов Н. Маданиятишунослик бакалавриат учун дарслик. –Тошкент, 2008.
4. Гегель Г. Эстетика. Санъат ва бадиий ижод фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2012.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
6. Кравченко А.И. Культурология: учебник. – Москва: “Проспект”, 2005.
7. Кравченко А.И. Культурология: учеб. пособие для вузов. 8-е изд. – Москва: Академический проект; Трикста, 2008.
8. Назаров Қ. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли лугати. – Тошкент: Фафур Фулом.
9. Парк Р.Э. Город как социальная лаборатория // Социологическая теория: история, современность, перспективы. Альманах журнала «Социологическое обозрение». – Санкт-Петербург, 2008.